



Halocnemum strobilaceum
(Pall) Bieb o'simligi endofit
bakteriyalari istiqbolli
shtammlari asosida mikrob
preparati yaratish va
amaliyotga joriy etish

Loyiha rahbari:

Maxammadiyeva Dilnoza

Baxriddinovna,

Biotexnologiya yo`nalishi

1-kurs magistranti


Tel: +998979277305

E-mail:


dilnozmakhammadiyeva3007@gmail.com

Ilmiy maslahatchi:


dots.B.Alikulov



LOYIHANING DOLZARBLIGI



1980



2022

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda **bir mlrd gektardan** kamroq hudud birlamchi, **77 mln gektardan** ortiq hududi ikkilamchi sho'rlanishga uchragan, ikkilamchi sho'rlangan hududlarning **58 %** sug'oriladigan maydonlar hisoblanadi.

Sho'rlanishga uchragan hududlarning kengayishi qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan, asosiy oзуqа ekinlaridan olinadigan hosilning **40%** gacha kamayishiga, natijada aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib kelmoqda.

Holat qishloq xo'jaligi ekinlarining stress omillarga chidamliligini oshirishda, jumladan, sho'rlanish sharoitlarida o'sib-rivojlanishini ta'minlashda innovatsion uslublarni qo'llashni taqozo etmoqda.

Taqdim qilinayotgan loyiha doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasida yaratiladigan mikrob preparati sho'rlangan maydonlarda bug'doy va boshqa oзуqа ekinlarini yetishtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



LOYIHANING MAQSADI

O'zbekistonning sho'rlangan cho'l mintaqalarida tarqalgan *Halocnemum strobilaceum* (Pall) Bieb o'simligidan ajratib olingan istiqbolli shtammlar asosida mikrob preparati yaratish va amaliyotga joriy etishdan iborat

LOYIHANING VAZIFALARI VA ULARNI BAJARISH MUDDATLARI

1-yil I-II chorak: gipergalofit *Halocnemum strobilaceum* (Pall) Bieb o'simligidan ajratib olingan *Priestia megaterium* HAST2, *Priestia aryabhatai* HAST7, *Pseudomonas plecoglossicida* HAST9, *Pseudomonas putida* HAST10, *Pseudomonas chlororaphis* HAST17 endofit bakteriya shtammlarining o'simliklar rivojlanishini rag'batlantiruvchi xususiyatlarini aniqlash ;

1-yil III-IV chorak: vegetatsion va dala tajribalarda bakterial suspenziyalar bilan ishlov berishning sho'rlangan sharoitda bug'doy o'simligi rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini aniqlash orqali shtammlar orasidan eng istiqbolli shtammni tanlash;

2-yil I-II chorak: tanlangan istiqbolli shtammni ko'paytirish uchun mahalliy xomashyolarga asoslangan optimal ozuqa muhiti tarkibini ishlab chiqish;

2-yil III-IV chorak: endofit bakteriyalarning tanlangan istiqbolli shtammi asosida qishloq xo'jalik ekinlarining sho'rlanish stressiga chidamliligini oshiruvchi mikrob preparati olish texnologiyasini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va iqtisodiy samaradorligini baholash.

LOYIHANING HARAJATLAR SMETASI

(loyihaning umumiy qiymati – 140 mln so`m)

Harajat turi	Oylik harajat	Yillik harajat
Ish haqi (3 ta loyiha a`zosi*), mln so`mda (*loyihaga ikki nafar iqtidorli talabalar jalb etish rejashlashtirilgan)	3,0	36,0
Jihozlar va sarflanuvchi materiallar, mln so`mda		24,0
Safar harajatlari (dala tajribalari, konferensiyalar)		10,0
Jami bir yillik harajat miqdori, mln so`mda		70,0

LOYIHADAN KUTILAYOTGAN ILMIY VA IQTISODIY SAMARADORLIK



Mikrob preparati sho'rlanish sharoitida o'sadigan galofit o'simliklar endofit bakteriyalarining stress sharoitida o'simliklar o'sishini rag'batlantiruvchi xususiyatlari va mexanizmlarini chuqur tadqiq qilish orqali tanlangan istiqbolli shtammlar asosida yaratiladi.



Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar sarfini kamaytirish, sho'rlangan maydonlar ekinlar yetishtirish, uni birgalikda qo'llash mineral o'g'itlar uchun sarflanayotgan mablag'larni **20 %gacha tejash**, sho'rlangan maydonlardagi ekinlar hosildorligini **13-18 %gacha oshirish** imkonini beradi